

Rahbarlikda Notqlik Madaniyatining O‘Rni

Oqila Ortiqboyeva

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institute “Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolamning qisqacha mazmuni shundan iboratki, rahbarlikda notqlik san’ati qanchalar muhimligi, bugungi kunda uning ahamiyati, mavzu yuzasidan o‘z takliflarim haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Nutq, rahbar, notqlik, suxandonlik, so‘z, donishmand, bilim, rost so‘zlash, madaniyat, menejment.

Prezidentimizning ko‘plab qaror va farmoyishlari hayotga tatbiq qilinib, ular tufayli mamlakatimizda madaniyat va san’at sohasida ham katta bir qancha o‘zgarishlar, yangilanishlar sodir bo‘lyapti. Bunga yaqqol misol qilib, ijtimoiy, madaniy-ma’rifiy sohadagi ishlarni yanada rivojlantirish va yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusning birinchi yo‘nalishi – musiqa, rassomchilik, adabiyot, teatr va yana san’atning bir qancha boshqa turlariga yoshlarni qiziqishini oshirish, yashirin iste’dodlarni yuzaga chiqarishga xizmat qilishi san’at vakillariga yanada katta mas’uliyat yukladi va quvontirdi, albatta. Prezidentimizning “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotida tutgan o‘rni va ta’sirini oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlai va undagi keng ko‘lamli vazifalar har bir san’at vakilini ruhlantiradi. Bularning barchasi esa mamlakatimizda ma’naviy taraqqiyotga davlat miqyosida katta e’tibor qaratilayotganini isbotlaydi.

Bugungi kunda ayniqsa madaniyat sohasiga “menejment” degan so‘z kirib keldi. O‘zbekiston Davlat San’at va Madaniyat Institutida “Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish”, “Madaniyat menejmenti” kabi yo‘nalishlar ochildi va bugungi kunda ushbu yo‘naishlarda bir necha yuz talabalar tehsil olishmoqda. Buning quvonarli tarafi shundan iboratki, maa endi madaniyat va san’at sohasining haqiqiy boshqaruvchi va menejerlari malakali kadr sifatida yetihib chiqadi. Boshqaruvchidan asosan boshqaruv apparatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va xodimlar bilan ishlash san’ati yaxshi shakllangan bo‘lishi lozim. Bugungi kunda, afsuski, ba’zi rahbarlarda notqlik san’atining yo‘qligi boshqaruv tizimida biroz pand beradi. Rahbar, avvalo, so‘zlashish nutqiga, muomala madaniyatiga ega bo‘lishi lozim.

Kaykovusning “Qobusnoma” asarida aytilganidek:”Agar har qancha dono bo‘lsang ham o‘zingni nodon tutg‘il, toki senga hunar o‘rgatish eshigi hamisha ochiq bo‘lg‘ay. Gar so‘zni va hunarni yaxshi bilsang ham hech bir so‘zni sindirmag‘il, to‘g‘ri ta’rif qilg‘il va uni har bir rangda aytg‘il: xosga xos so‘z, omiyga omiy so‘z deg‘il, toki u hikmatga muvofiq bo‘lsin va eshitg‘on kishiga og‘ir kelmasin, yo‘qsa so‘zingni dalil va hujjat bila ham eshitmag‘aylar. Undin so‘ng ularning rizosiga qarab so‘zlag‘il, to salomat bo‘lg‘aysan”.

Bundan ko‘rinadiki, har bir rahbar suxandonlik ila so‘zlashi lozim. Rahbarning bilim ko‘nikmalari qancha ko‘p bo‘lmasin, lekin nutq yaxshi bo‘lmasa atrofdagilarga va o‘z xodimlariga biron narsa haqida tushunchasini aytib bera olmaydi. Boshqaruvchi qanchalik aqlli bo‘lmasin, qayerda va kimga qanday so‘zlashini yaxshi bilishi lozim. Juda ko‘p gapirish ham nodonlik demakdir. Har bir

xodim psixologiyasidan kelib chiqqan holatda ularga munosabat bildirishi darkor. Rahbar shaxs katta davralarda, majlislarda, konferensiyalarda o'ziga ishonch bilan, atrofdagilarni jalb qilgan holatda, biroz qo'l harakatlatini ishga solib, shoshilmasdan nutq so'zlashi kerak. Avvalo, so'zlayotganlarini o'zi tushunishi va har bir gapini hujjatlar yoki ma'lumotlar bilan ibotlashi lozim. Notiqlikda adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda nutq so'zlash barcha uchun tushunarli bo'ladi. To'liq adabiy o'zbek tilida biron narsni so'zlash atrofdagilarga erish tuyulishi mumkin. Shuning uchun ham ayrim jumladagi shevani istisno tarzida xatolik emas, til koloritini saqlash, obraz yaratish va atrofdagilarni e'tiborini jamlash unsuri deb qarash lozim.

Kaykovusning "Qobusnoma" asarida bir ajoyib hikoya keltirilgan: Bir donishmand kishi bor edi. U Zinjon viloyatining shayxi va notiqalaridan edi. Bir alaviy yigit ham bore di. U ham notiqlik qilardi. Hamisha ikkovi bahslashardi. Bir kuni alaviy kursisining ustida shayxni "kofir" dedi. Bu xabarni eshitgan shayx "Agar men kofir bo'lsam, u haromzodadur" deb javob qaytardi. Alaviy darhol Ray shahriga jonadi va u shaharning hakimi Sohibi Abbodga uchrashdi va bo'lgan voqeani so'zlab berdi. Shayxni ham bu yerga olib kelishdi. Shayxga "Ey shayx, sen imon Shofi'iy suhbatdoshining imomlaridansan. Olim insonsan, nimaga Rasul alayhissalomning farzandlariga haromzoda deding? Endi aytgan so'zingni oqla yoki shunday bir jazo qo'llayki, atrofdagilar bunday beodoblik qilmaydilar", - dedi. Shayx: "Mening guvohim alaviyning o'zidir va undan yaxshi guvoh ham talab qilma". Bunga Sohibi Abbod hayron qoldi. Shayx davom etdi: "Xalqning barchasi biladi, uning onasini nikohini men qilganman. U meni kursida o'tirib "kofir" debdi. Agar bu so'zni e'tiqod yuzasidan aytgan bo'lsa, kofirning nikohi durust bo'lmaydi va bu so'zi bilan beshak haromzodadur. Agar u bu so'zni e'tiqod yuzasidan aytmagan bo'lsa, u yolg'onchidir. Hech shak yo'qki, buning ikkisidan biri bo'lur. Endi unga shariat hukmi bilan nima qilsangiz qiling", - dedi. Bu so'zdan alaviy aytgan gaplai uchun juda hijolatmand bo'ldi va andishasiz aytgan gapi o'zoga shuncha zarar yetkazdi.

Bundan ko'rinib turibdiki, boshqaruvchi yoki xodim bo'lishidan qat'i nazar aytilgan har bir gapini avval o'ylab keyin so'zlashi kerak. Notiqlik, suhandonlik nafaqat adabiy tarzda go'zal va ravon nutq so'zlash, balki hozirjavoblik, aqlli va ma'noli so'zlash – so'z ustaligi demakdir. Aynan bugungi kunda tshkilot rahbarlarida nutq texnikasi oqsayotgani, kerak-kerakmas mavzularda so'zlashi va tovushlarni chaynab yuborishi ayniqsa katta sahnalarda va majlislarda seziladi. O'zbek adabiy tilining go'zalligini yoshlarga singdirishni, shevadan o'rni kelganidagina foydalanishni, aytayotgan voqealarning dolzarbligiga ahamiyat qaratishni aytib o'tgan bo'lardik. Mavzu yuzasidan taklif sifatida "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish", "Madaniyat menejmenti" kabi yo'nalishlarda tahsil olayotgan talabalarga malakali kadr sifatida yetishib chiqishi uchun "nutq madaniyati" fani dars sifatida qo'yilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi. Yosh rahbarlarga boshlang'ich ta'lim va tavsiyalarni berish boshqruv apparatini yanada yaxshi va tizimli tashkil etishda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kaykovus "Qobusnoma". Toshkent: Yangi asr avlodi. 2022 yil.
2. S.Inomxo'jayev "Badiiy o'qish asoslari". Toshkent: O'qituvchi. 1973 yil.
3. Shermanov, E. "Role of mass media in the formation of participatory education in the context of globalization." (2021).
4. Шерманов, Элдор. "ИНСОН–ЎЗ ХАЛҚИ ТАҚДИРИГА ЛОҚАЙДЛИГИ ИЖТИМИЙ-ПЕДАГОГИК МУАММО СИФАТИДА." *Scientific progress* 3.6 (2022): 64-70.
5. Нуруллаев, А. С. "К ВОПРОСУ МЕТОДОЛОГИИ ТЕХНОЛОГИИ РЕАЛИЗАЦИИ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ." *Экономика и социум* 8 (99) (2022): 268-278.
6. Нуруллаев, Абдулазиз. "Мировой страховой рынок и тенденции его развития." *Архив научных исследований* 4.1 (2022).

7. Нуруллаев, Абдулазиз. "Қишлоқ хўжалигидаги институционал ўзгаришлар шароитида давлат қўмаги асосида рискларни суғурталаш методологиясига янгича ёндашув хусусида." *Экономика и инновационные технологии* 5 (2019): 117-126.
8. Нуруллаев, А. С. "Вопросы страхования фермерских хозяйств в Узбекистане." *Актуальные проблемы современной науки* 2 (2004): 116.
9. Nurullaev, Abdulaziz Sirojiddinovich. "The Model of Insurance Protection of Business in the Agricultural Sector in the Context of Institutional Transformations." *International Journal of Business, Economics and Management* 4.2: 344-349.
10. NURULLAEV, AS. "To the Question of Methodological Bases of Future Harvest Insurance in Agriculture." *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology* 7.05: 329-333.
11. Nurullaev, Abdulaziz Sirozhiddinovich. "Improvement of agricultural insurance as a factor of development of agrarian industry in the country." *CREATION OF ETHNOGRAPHIES WITH POPULAR TRADITIONS* 11.13: 45.
12. Нуруллаев, А. С. "ИЖТИМОЙ-МАДАНИЙ ФАОЛИЯТ БОШҚАРУВИДА МЕНЕЖМЕНТИНГ ЎРНИ." 95.
13. Kalkanatov, Asilbek. "PROFESSIONAL QUALIFICATION OF THE MANAGER IN THE CULTURAL FIELD." *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE* 2.9 (2023): 19-23.
14. Kalkanatov, Asilbek. "THE IMPORTANCE OF MANAGING THE PARTICIPATION OF CULTURAL AND ART INSTITUTIONS AND ORGANIZATIONS IN CULTURAL ACTIVITIES." *Journal of Innovation, Creativity and Art* 2.9 (2023): 7-10.
15. Abatbaevna, Saparbaeva Gulshira, and Qolqanatov Asilbek Nazarbaevich. "History of the Development of Spiritual and Educational Processes in Karakalpakstan." (2023).
16. ЮЛДАШЕВА, Манзура, and Асылбек КОЛКАНАТОВ. "ПУТИ ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ В СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ СРЕДЕ." *Journal of Culture and Art* 1.1 (2023): 16-20.
17. Zokirovich, Muminmirzo Kholmuminov, and Asilbek Kolkhanatov Nazarbaevich. "A LOOK AT THE HISTORY OF CLUB ESTABLISHMENTS AND CULTURAL AND EDUCATIONAL PROCESS IN UZBEKISTAN." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.2 (2022): 37-44.
18. Юлдашева, Манзура, and Асылбек Колканатов. "OILAVIY DAM OLIISH MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOY VA MADANIY MARKETING." *Scientific journal of the Fergana State University* 3 (2022): 6-6.
19. Xolmo‘Minov, Mo‘Minmirzo, and Asilbek Qolqanatov. "MUFASSAL MUSHOHADALAR ME‘MORIDAN MUFASSAL MUSHOHADALAR MEROJI." *Oriental Art and Culture* 3.2 (2022): 568-580.
20. Yuldasheva, Manzura, and Asilbek Qolqanatov. "O ‘ZBEKISTONDA MUZEY MENEJMENTI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH XUSUSIYATLARI." *Oriental Art and Culture* 3.1 (2022): 254-260.
21. Xolmo‘Minov, Mo‘Minmirzo, and Asilbek Qolqanatov. "O‘ZBEKISTONDA MADANIY-MA‘RIFIY ISHLAR VA KUTUBXONALAR FAOLIYATI (XX ASR TAJRIBALARIDAN)." *Oriental Art and Culture* 3.1 (2022): 281-290.
22. Kholmuminov, Muminmirzo, and Asilbek Qolqanatov. "The Formation of the First Libraries in Uzbekistan and the Role of Increasing the Cultural and Educational Awareness of the Population." *International Journal on Integrated Education* 4.12 (2021): 146-151.

23. Kolkanatov, Asilbek. "IFTIKHORI TIMSOLI TUMOR BRANCH." *JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH* 2.11 (2023): 67-69.
24. Nazarbay o'g'li, Qolqanatov Asilbek. "OMMAVIY TOMOSHA MUASSASALARI FAOLIYATI TAHLILI." *Academic Integrity and Lifelong Learning (France)* 2 (2023): 15-21.
25. Kalkanatov, Asilbek, Shahabatdin Makhamatdinov, and Islam Urazbaev. "ACTIVITIES OF NEW KARAKALPAKSTAN CULTURAL CENTERS: REFORM AND ANALYSIS." *Art and Design: Social Science* 3.01 (2023): 1-4.
26. Xolmo'Minov, Mo'Minmirzo, and Asilbek Qolqanatov. "HIMMATNING QIYMATI ILM VA TAFAKKUR XAZINASI." *World of Philology* 2.1 (2023): 59-64.
27. Nazarbay o'g'li, Qolqanatov Asilbek. "OMMAVIY TOMOSHA MUASSASALARI FAOLIYATI TAHLILI." *Academic Integrity and Lifelong Learning (France)* 2 (2023): 15-21.
28. Nazarbai, Kolkanatov Asilbek. "NEW VOICE IN UZBEK DIRECTION." *Journal of Innovation, Creativity and Art* 2.12 (2023): 65-70.
29. Xolmo'minov, Mo'minmirzo. "RAHBARNING ISH USLUBIDA IMIJNING O'RNI." *Educational Research in Universal Sciences* 2.2 (2023): 156-160.
30. Togonbayeva, Ziyodakhan, and Mominmirza Kholmominov. "THE IMPORTANCE OF STATE ADMINISTRATION IN THE FIELD OF CULTURE AND ART IN THE NEW UZBEKISTAN." *International Bulletin of Applied Science and Technology* 3.3 (2023): 275-277.
31. To'G'Onboyeva, Ziyodaxon, and Mo'Minmirzo Xolmo'Minov. "MADANIYAT VA SAN'AT SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASI." *Oriental Art and Culture* 3.4 (2022): 650-654.